

**DAG‘AL DALACHOY (*HYPERICUM SCABRUM L.*) O‘SIMLIGINING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ РАСТЕНИЯ ЖЁСТКАЯ ЗВЕРОБОЙ (*HYPERICUM
SCABRUM L.*)**

**CHARACTERISTICS OF THE PLANT *HYPERICUM SCABRUM L.*
(ROUGH ST. JOHN’S WORT)**

Yursunova O‘g‘iloy

Farg‘ona Davlat Universiteti

biologiya yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada dorivor o‘simliklardan biri bo‘lgan dag‘al dalachoy (*Hypericum scabrum L.*) o‘simligining kimyoviy tarkibi, qo‘llanishi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumotlar berilgan .

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simlik, ildiz , damlama , meva , poya , gul ,ferul kislotasi , efir moy, giperforin , xlorogen ,tanin ,mirsin ,limonen , ko‘p yillik , barg.

Аннотация:

В данной статье представлена информация о химическом составе, применении и специфических свойствах лекарственного растения Жесткий зверобой (*Hypericum scabrum L.*).

Ключевые слова: лекарственное растение, корень, настой, плод, стебель, цветок, феруловая кислота, эфирное масло, гиперфорин, хлорогеновая кислота, танин, мирцин, лимонен, многолетнее, лист.

Annotation:

This article provides information on the chemical composition, application, and specific properties of the medicinal plant Rough St. John's Wort (*Hypericum scabrum L.*).

Keywords: medicinal plant, root, infusion, fruit, stem, flower, ferulic acid, essential oil, hyperforin, chlorogenic acid, tannin, myrcene, limonene, perennial, leaf.

O‘zbekistonda tabiiy holda 4500 turga yaqin yuksak o‘simliklar tarqalgan ularning 700 dan oshiq turi dorivorlik xususiyatiga ega o‘simliklardir. Dorivor moddalar o‘simliklarning ildizi yoki po‘stlog‘ida, poyasi va bargida, guli va mevasida to‘planadi va mavsumiy yig‘ib olinadi. Dorivor o‘simliklardan biri bo‘lgan dalachoy ham juda ko‘p kasalliklarni davolashda foydalanib kelinmoqda. Dalachoyni 3 ta turidan tibbiyotda foydalaniladi. Ular orasida o‘ziga xos bo‘lgan Dag‘al dalachoy o‘simligiga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

BOTANIK TAVSIFI

Dag‘al dalachoy, qizilpoyacha (*Hypericum scabrum L.*) bo‘yi 20-50 sm keladigan ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Poyasi tik o‘sovchi, shoxlanmagan, yuqori qismi qisman shoxlangan, barglari cho‘ziq nashtarsimon, qirradi pastga qayrilgan, poyada bandsiz qarama qarshi joylashgan. Gullari sariq rangli ro‘vak to‘pgul. Mevasi ko‘p urug‘li, tuxumsimon ko‘sakcha. Iyun-sentabr oylarida gullab, meva beradi. Adir va tog‘larda, ariq bo‘ylarida, sernam yerlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.



1- rasm. O‘simlikning umumiy ko‘rinishi.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Ichga, damlama ko‘rinishida qo‘llaniladi.

1. Damlamani tayyorlash uchun 10 g (2 osh qoshiq) o‘tini sirlangan idishga solib ustiga 200 ml (1 stakan) qaynatilgan suv quyiladi va qopqoq bilan yopiladi, qaynayotgan suv hammomida 15 minut qizdiriladi va xona haroratida 45 minut davomida sovutiladi.

2. Damlama doka orqali suzib o‘tkaziladi va qolgan xom-ashyo siqiladi.

3. Olingan damlama hajmi qaynatilgan suv bilan 200 ml gacha yetkaziladi.

4. Damlamani salqin joyda 2 sutkagacha saqlash mumkin.

Damlamani 2 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ovqatdan 30 minut oldin qabul qilinadi.

KIMYOVIY TARKIBI

O‘simlik tarkibida asosan α -pinen, β -pinen, mirsen, limonen, kariofillen, germakren D kabi efir moyi komponentlari mavjud. Flavonoidlar orasida giperosid, rutin, kversetin, izokversetin va kaempferol hosilalari aniqlangan. Shuningdek, o‘simlik tarkibida xlorogen kislota, kafe kislota va ferul kislota kabi fenol kislotalari bor. Taninlar - ya’ni yarim gidrolizlanuvchi va kondensirlangan taninlar ham mavjud bo‘lib, ular biologik faollikka ega. Ba’zi manbalarda kumarin turkumiga mansub birikmalar borligi qayd etilgan. *Hypericum scabrum* tarkibida *hypericum perforatum* turiga xos bo‘lgan giperitsin va giperforin moddalari kam miqdorda yoki butunlay mavjud emas.

DORIVORLIK XUSUSIYATI

Dag‘al dalachoy -efir moylari kuchli antibakterial va antifungal ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, α -pinen va kariofillen moddalari zararli mikroorganizmlarga qarshi faol ekani aniqlangan. Flavonoidlar (giperosid, rutin, kversetin) va fenolik kislotalar (xlorogen, kafe, ferul kislota) esa antioksidant xususiyatga ega bo‘lib, hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qilishda ishtirok etadi. Shuningdek, ekstraktlari ba’zi tajriba sinovlarida yallig‘lanishga qarshi (antiinflamatuvar) va og‘riqni kamaytiruvchi (analjezik) xususiyatlar ko‘rsatgan. Kumarin moddalari tufayli esa spazmolitik (ichki mushaklarni bo‘shatiruvchi) ta’siri ham qayd etilgan.

Tibbiyotda, ayniqsa xalq tabobatida, ushbu o‘simlikdan tayyorlangan damlamalar yoki moylar teri yallig‘lanishlarida, mayda yara va shikastlanishlarda ishlatilgani haqida Eron va O‘zbekiston hududidagi an’anaviy qo‘llanma va maqolalarda eslatib o‘tiladi.

Xulosa:Dag‘al dalachoy o‘simligining dorivorlik xususiyatlari uning boy kimyoviy tarkibi bilan bevosita bog‘liq. Tadqiqot natijalari ushbu o‘simlik tarkibida biologik faol moddalar mavjudligini ko‘rsatdi va bu uni xalq tabobatida hamda zamonaviy tibbiyotda foydalanish uchun istiqbolli vosita sifatida baholashga asos beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Gul va Manzarali o‘simliklar florasi va sistematikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar qo‘llanmasi” Namangan-2022.
2. “Essential Oils: Analysis, Applications and Biological Activity” – Muhammad Akram, Samra Qaisar, et al. (Springer, 2020).
3. Asgarpanah J., Ghanbarimasir Z. Phytochemical Profiling and Evaluation of Pharmacological Activities of *Hypericum scabrum L.* Molecules, 2015.
4. Azizova S.S “Farmakologiya” Toshkent.2002
5. Saxobiddinov S.S “O‘simliklar sistematikasi-2 “Gulli o‘simliklar” Toshkent.1966